

**DEMOGRAFIK KO'RSATKICHLAR VA ISHSIZLIK ORASIDAGI BOG'LIQLIKNING
EKONOMETRIK TAHLILI**

Nuritdinov Jalolxon,

Qo'qon Universiteti Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrasi o'qituvchisi

Ubaydullayev Amurullo

Qo'qon Universiteti Iqtisodiyot yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Umurzaqov Nuriddin

Qo'qon Universiteti Iqtisodiyot yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2011-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davr davomida tug'ilganlar soni va atmosferaga chiqarilgan ifoslantiruvchi moddalar hajmi orasidagi bog'liqlik bo'yicha tahlil olib borilgan. Olib borilgan tahlil natijasida tug'ilganlar soni va atmosferaga chiqarilgan ifoslantiruvchi moddalar orasidagi bog'liqlik ekonometrik model tuzilgan. Tuzilgan ekonometrik model mezonlar yordamida baholanib, ekonometrik model yordamida kelgusidagi atmosferaga chiqarilgan ifoslantiruvchi moddalar hajmi bashorat qilingan. Olib borilgan tahlillarga tayangan holda ko'rsatkichlar orasidagi bog'liqlik ilmiy asoslangan taklif va mulohazalar berilgan.

Kalit so`zlar: natijaviy belgi, Student mezoni, Fisher mezoni, aproksimatsiya hatoligi, elastiklik, juft korrelyatsiya, ekologiya, korrelyatsion bog'lanish.

Aholining o'sishi, sanoati rivojlangan mamlakatlarda uning qarishi, atrof-muhitning ifloslanishi kabi muammolarning xalqaro jihatlari globallashuv va zamonaviy dunyoning o'zaro bog'liqligi, shuningdek, insonning iqtisodiy faoliyati, er yuzidagi tabiiy resurslarning notekis taqsimlanishi va cheklanganligi bilan bevosita bog'liqdir. O'z navbatida, aholi va atrof-muhit masalalari bir-biri bilan bog'liq. Aholining o'sishi atrof-muhitga kamida ikki jihatdan ta'sir qiladi. Birinchidan, sayyorada yashovchilar sonining ko'payishi ko'proq oziq-ovqat, energiya va boshqa resurslarni iste'mol qilishni talab qiladi. Ikkinchidan, iqtisodiy faoliyatning o'sishi kuzatilmoxda, bu chiqindi gazlar, havoning ifloslanishi, suv resurslari va boshqalar tufayli atrof-muhitning ifloslanishiga ta'sir qiladi. Endilikda mamlakat iqtisodiyotida demografik o'sishni ekologiyaga ta'sri doirasida aniq statistik ma'lumotlar orqali tahlil qilib chiqamiz. Ushbu tadqiqotda 2011- yildan 2022 yilgacha malumotlar uchun tug'ilganlar soni va atmosferaga chiqarilgan ifoslantiruvchi moddalar bo'yicha jami hisobotlar to'plandi. Tadqiqotda Y sifatida atmosferaga chiqarilgan ifoslantiruvchi moddalar, X sifatida tug'ilganlar soni deb oldik [3,4]. Bu ko'rsatkichlarning 12 ta kuzatuvchi berilgan. Berilgan o'zgaruvchilar orasidagi bog'lanish zichligini korrelyatsiya koefitsentini orqali aniqladik: $R(xy) = 0,972341328$. Demak, bu o'zgaruvchilar to'g'ri va zich bog'lanishga ega. Tug'ilishlar soni ta'sir etuvchi omil va atmosferaga chiqarilgan ifoslantiruvchi moddalar natijaviy belgi sifatida olib tuzilgan regression egrini chiziqli modelimiz ko'rinishi quyidagicha: $y = 1605,1 * 1,000006^x$. Demak, tug'ilishlar soni bir birlikka o'zgarsa, atmosferaga chiqarilgan ifoslantiruvchi moddalar 1,000006 darajada o'zagrar ekan. Quyidagi jadvalda ko'rishingiz mumkin:

1	Yillar	Tug'ilganlar soni yilda- kishi X	Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar (ming tonna) Y
2	2011	622 835	103 232,6
3	2012	625 106	127 590,2
4	2013	679 519	153 311,3
5	2014	718 036	186 829,5
6	2015	734 141	221 350,9
7	2016	726 170	255 421,9
8	2017	715 519	317 476,4
9	2018	768 520	426 641,0
10	2019	814 960	532 712,5
11	2020	841 817	605 514,9
12	2021	905 211	738 425,2
13	2022	932 217	896 617,9
14	summa	9 084 051	4 565 124
15	o'rtacha	757 004	380 427
16	Korrelyatsion		
17	r(xy)	0,972341328	
18	B	6,92602E-06	
19	A	7,380951055	
20	model parametrlari		
21	b	1,000006926	
22	a	1605,115596	
23	Ko'rsatkichli model		
24	y=1605,1*1,000006^x		


Tuzilgan model Aproksimatsiya o'rtacha xatoligi 15,5% ligi aniqlandi. Bu tuzilgan regression modelning o'rtacha yaroqli va sifatlari deyishimiz mumkin. Chunki regression modelda Aproksimatsiya xatoligi 12% dan oshmasligi lozim. Aks xolda model haqiqiy va malumotlarga mos kelmaydi va sifatsiz hisoblanadi [1,2].

Tuzilgan model statistik ma'nodorligini tekshirish maqsadida Fisher me'zonini hisoblaymiz. $F_{fakt}=173.3$. Fisher me'zoning 0.95 aniqlikdagi va $k_1=1$ $k_2=10$ dagi jadvaldagi qiymati $F_{jad}= 4.965$. Demak, $F_{fak} > F_{jad}$. Shuning uchun tuzilgan model statistik manodor deb hisoblashimiz mumkin. Tuzilgan chiziqli regressiya modeli parametrlarini Student T me'zoni bo'yicha tekshiramiz. Bu parametrlarning Student T qiymati $t(a)= 6884,855446$ $t(b)= 4,289350342$ $t(rxy)= 13,16473264$ ko'rinishda ekan, Student T me'zoning 0.95 aniqlikdagi $k=10$ dagi jadval qiymati $T_{jadval}=1,8124$ ga teng. Demak tuzilgan model parametrlari ishonchli ekan.

Modelimizning grafigi quyidagicha tasvirlandi:

**Tug'ilganlar soni va Atmosferaga chiqarilgan ifoslantiruvchi
moddalar**

$$y = 2E+06 \ln(x) - 3E+07$$



Xulosa: Tuzilgan modelimizni prognoz qiymati agar tug'ilishlar soni 1000000 ni tashkil qilsa, atmosferaga chiqarilgan ifoslantiruvchi moddalar hajmi 1634707,345 ga teng bo'ladi deb prognoz qilishimiz mumkin.

A	B	C
1 Yillar	Tug'ilganlar soni yilda-kishi X	Atmosferaga chiqarilgan ifoslantiruvchi moddalar (ming tonna) Y
14 summa	9 084 051	4 565 124
15 o'rtacha	757 004	380 427
16 Korrelyatsion		
17 r(xy)	0,972341328	
18 B	6,92602E-06	
19 A	7,380951055	
20 model parametrlari		
21 b	1,000006926	
22 a	1605,115596	
23 Ko'satkichli model		
24 y=1605,1*1,000006^x		
25 Aproksimatsiya xatoligi	15,51901805	
26 Fisher me'zoni	173,3101854	
27 Fisher jadval qiymati	4,964602744	
28 Student T me'zoni		
29 sigma qoldiq	77134,56841	
30 m(b)	0,233137153	
31 m(a)	177884,9484	
32 m(rxy)	0,073859558	
33 t(b)	4,289350342	
34 t(a)	0,009023336	
35 t(rxy)	13,16473264	
36 T jadval	1,812461123	
37 Prognoz qiymati		
38 x(p)	1000000	
39 y(p)	1634707,345	
40 myp	98259,49046	
41 delta y min	1456615,839	
42 delta y max	1812798,852	

Prognoz qiymati shunday bolganda Y minimum qiymati 1456615.8 ga Y maximum 1812798.8 ga teng bo'ladi deyishimiz mumkin. Bundan ko'rindaniki, xozirgi kunda aholi soni oshishi ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatar ekan.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Sh.I.Mustafaqulov, H.N.Sabirov. Ekonometrika 1. O'quv qo'llanma.-T.: "Ilm-fan va innovatsiya" 2022, 232b.
2. Toshxo'jayev Abduqodirxon Abdulmansur o'g'li, & Nuritdinov Jalolxon Tursunboy o'g'li. (2023). O'ZBEKİSTONDA KİCHİK BİZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA XİZMAT KO'RSATISH SOHASINING YALPI İCHKI MAHSULOTDAGI ULUSHI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 328–332. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.454>
3. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
4. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/ecology-2>
5. <https://newjournal.org/index.php/new/article/view/3370/3164>